

ETNONIMLAR SEMANTIKASINING LEKSIKOGRAFIK TALQINLARI

Rajabov Feruz

Turdiyeva Munisa

Berdimurodova Dilnoza

QarMII akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari.

Annotatsiya: *Bu maqolada etnonimlar semantikasining leksikografik talqinlar ilmiy manbalarga tayangan holda tahlil qilishga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar: atoqli otlar, turdosh ot, leksik ma'no, neytral nutq.

Tilshunoslar atoqli otlarning ma'nosi masalasida besh xil qarashni oldinga surishadi:

1. Atoqli ot ma'no ifodalamaydi, lug'aviy ma'noga ega emas.
2. Atoqli ot ham ma'noga ega, uning ma'nosi yakka, individual narsa (obyekt) bilan bog'liq.
3. Atoqli otning ma'nosi turdosh ot ma'nosidan boy.
4. Atoqli ot ma'nosini nomning qo'llanishdagi (nutqdagi) holatidan kelib chiqib baholash kerak.
5. Atoqli ot ifoda qiluvchi ma'no konkretdir, turdosh ot ifoda etuvchi ma'no mavhumdir.

Atoqli otlar ma'nosiga oid barcha mulohazalar bundan ancha yillar oldin o'zbek tilshunoslida E.Begmatov tomonidan aytilgan edi. U «Kishi nomlarining ma'nolariga doir» maqolasida Y.M.Galkina-Fedoruk, A.A.Potebnya, L.V.Bulakovskiy, V.M.Boguslavskiy, A.A.Reformatskiy, N.M.Aleksandrov, V.A.Zveginsev, V.N.Mixaylov va boshqalarning bu masalaga oid fikrlarini tahlil qilar ekan, yozadi: «Kishi nomlarining ma'nosi to'g'risida gap borganda qanday ma'no ko'zda tutilayotganligi ko'p hollarda noaniq qoladi. Bizningcha, bu masala konkretlashtirishni talab qiladi.

Ma'lumki, so'zlar leksik ma'nodan tashqari xilma-xil grammatik va funksional ma'nolarga ham egadir. Kishi nomlarining ma'lum tushuncha anglata olishini inkor etish umuman so'zning leksik ma'nosini inkor etishdir, holbuki leksik ma'no uchta faktorning: narsa va hodisa (real borliq)ga munosabat, tushuncha, til sistemasining birligidan iboratdir⁵². So'zlarni tamoman ma'nosiz deb bo'ladimi? Yo'q, aslo. Masalan, yordamchi so'zlar o'zlaricha mustaqil leksik ma'no anglatmasa ham, ular tamoman ma'nosiz emas. Yordamchi so'zlar turli munosabat ma'nolarni, grammatik ma'nolarni ifoda etadi. Har holda atoqli otlardan kishi nomlari ham ma'lum darajada ma'noga egadir⁵³. Ko'rindaniki, E.Begmatov tadqiqotchilarning atoqli otlar ma'noga ega degan fikriga qo'shiladi.

A.A.Reformatskiy fikricha, turdosh tushunchaga to'liq (maksimal) darajada bog'langan bo'lsa, atoqli otlar maksimal darajada nominatsiyaga bog'langandir.

⁵² Звегинцев В.А. Семасиология. –М.: МГУ, 1958. – 146 с.

⁵³ Бегматов Э. Киши номларининг маъноларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. -1962. -2-сон. –Б. 52.

Demak, atoqli otning asosiy mohiyati atash, nomlashdir⁵⁴.

V.I.Bolotovning fikrlarida ikki muhim tomon bor. Birinchisi, uning atoqli ot umumiyligi va individual ma'noga ega deb hisoblashi va ikkinchisi, atoqli ot ensiklopedik ma'no anglatadi va bu ma'no «ijtimoiy maydon» («sotsialnoye pole»)da yuzaga keladi deb bilishidir⁵⁵.

Atoqli ot ma'nosini uning qo'llanish sharoiti bilan bog'lab izohlash O.T.Molchanovaning qarashlari uchun ham xosdir. Uning fikricha, atoqli ot ma'nosini muammosini atoqli otlarning barcha razryadlari uchun bir xilda tatbiq etib bo'lmaydi. Apellyativ bilan atoqli ma'nosini orasidagi munosabat murakkab bo'lib, nomning apellyativ ma'nosini atoqli ot semantik strukturasida anchagacha saqlanib turadi⁵⁶.

O.T.Molchanovaning biz murojaat qilayotgan ishida «Atoqli otlar semantikasi» bo'limi mavjud bo'lib, unda muallif ushbu masala yuzasidan A.Gardiner, A.P.Vanagas, V.Z.Panfilov, D.Gerxard, O.Xyofler, X.Shaynxord, A.V.Superanskaya va boshqalarning fikrlarini tahlil qiladi va F.L.Debusning atoqli otlar umumiyligi ma'nosida: 1) etimologik ma'no; 2) lug'aviy ma'no; 3) aktual ma'no mavjud degan fikrini keltiradi⁵⁷.

O.T.Molchanova atoqli otlar muayyan ma'noga ega degan fikr tarafdori. Uning yozishicha, atoqli ot ma'nosini shakllanishining dastlabki bosqichida unga lug'aviy asos bo'lgan apellyyat ma'nosini atoqli ot semantikasiga komponent bo'lib kiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, A.V.Superanskayaning atoqli ot ma'nosiga oid fikrlari uning turli yillarda yozilgan ishlarida ma'lum o'zgarishlarga uchrab bordi. U o'z ishlaridan biri til leksikasini ikkiga: keng iste'mol so'zlar va maxsus so'zlarga bo'ladi. Maxsus so'zlar deyilganda u asosan ilmiy terminologiyani tushunadi. U atoqli otlar ma'nosini shu guruhga mansub deb hisoblaydi. A.V.Superanskayaning atoqli ot intellektual informatsiya beradi, nom qo'llanaverган sari u tushunarli bo'la boradi, u ifodalaydigan xabar boyib boradi⁵⁸.

A.V.Superanskayaning atoqli otlar tushuncha bilan, konnotatsiya bilan bog'diq emas, degan fikri uning boshqa ishlarida turli shakllarda takrorlanadi⁵⁹.

Xullas, A.V.Superanskayaning atoqli otlar ma'nosiga oid tahlillarida quyidagi nuqtai nazarlar o'z ifodasini topgan:

1. Atoqli ot ma'nosini tushuncha bilan bog'lanmagan, til sathida aniq seziluvchi konnotatsiyaga ega emas.

2. Atoqli ot tushuncha bilan emas, yakka bir dona obyektga bog'langan bo'ladi.

Atoqli otlar antisemantik, ya'ni ma'nosiz degan fikrga V.D.Bondaletov qo'shilmaydi va atoqli ot hozirgi davr tilshunosligi so'z ma'nosining komponentlari deb hisoblovchi: 1) denotativ (so'z ma'nosining predmetga munosabati); 2) signifikativ (tushunchaga munosabati); 3) stuktur (so'z ma'nosining tildagi boshqa so'zlarga munosabati) xususiyatlarga egaligini ta'kidlagan⁶⁰.

⁵⁴ Реформатский А.А. Топонимика как лингвистический факт // Топонимика и транскрипция. – М.: Наука, 1964. – С. 11.

⁵⁵ Реформатский А.А. Топонимика как лингвистический факт // Топонимика и транскрипция. – М.: Наука, 1964. – С. 335.

⁵⁶ Молчанова О.Т. Структурные типы тюркских топонимов Горного Алтая. – Саратов: ГУ, 1982. – С. 7.

⁵⁷ Молчанова О.Т. Кўрсатилган манба. – 61 б.

⁵⁸ Суперанская А.В. Апеллятив-онома // Имя нарицательное и собственное. – М.: Наука, 1978. – С. 6-7.

⁵⁹ Суперанская А.В. Групповые обозначение людей в лексической системе языка // Имя нарицательное и собственное. – М.: Наука, 1978. - С. 60-61.

⁶⁰ Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – М.: Просвещение, 1983. - 26-27 с.

Atoqli otlarning ma'nosni haqida boshqa bir qator tilshunoslar ham gapirgan. Masalan, V.A.Nikonovning yozishicha, Yelena ismida «odam», «ayol» tushunchasi mujassamlashgan. Bundan tashqari bu ism «manu u», «shaxs» kabi ma'nolarga ham ishora qiladi⁶¹.

Yuqoridagi tahlillardan atoqli va turdosh otlar ma'nosni yuzasidan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Turdosh ot leksik ma'no, atoqli otlar esa ensiklopedik ma'no ifodalaydi.

2. Turdosh otning leksik ma'nosni muayyan sinf (guruhi), narsa (obyekt) haqidagi umumlashma tushuncha bilan bog'liq bo'lsa, atoqli ot ma'nosni yakka, individual (bir dona) obyekt bilan bog'liq bo'ladi.

3. Atoqli ot ma'nosni - ensiklopedik ma'nodir va nomlanayotgan obyekt haqidagi turli xabarni o'zida mujassamlashtiradi, bu xabar ko'pqirralidir.

4. Atoqli ot umumiyligi va individual ma'noga ega. Uning umumiyligi ma'nosni real qo'llanishdan tashqari, turgan holatidagi ma'nosidir. Individual ma'noga esa atoqli otning real qo'llanishi jarayonida, ya'ni nutq ichida hosil bo'ladigan serqirra ma'nodir.

5. Turdosh otning lug'aviy ma'nosini obyekt bilan u ifodalayotgan denotat haqidagi tushuncha orqali bog'lansa, atoqli otning ma'nosni bevosita denotatning o'zi bilan bog'liqdir.

6. Atoqli otning ensiklopedik ma'nosini asosiy va yana yordamchi (qo'shimcha) xabarlarni tashiydi. Asosiy xabarga atoqli ot atayotgan obyekt (denotat), uning xarakteri haqidagi ma'lumot kirsa, qo'shimcha xabarlargi nomdan anglashiluvchi estetik, etik, effektik, uslubiy, tarixiy-ma'noviy xabarlar kiradi.

7. Atoqli ot ma'nosining kengayib borishi u vazifa o'tayotgan vaziyatga, nutqiy faoliyatga, nom atab kelayotgan obyektning xarakteri yuzasidan ma'lum bo'lgan tushuncha va tasavvurga bog'liq.

8. Turdosh otning lug'aviy ma'nosini til sathiga mansub bo'lsa, atoqli otning ensiklopedik ma'nosini nutqiy sathga mansubdir. Shu sababli tilning izohli lug'atlarida ismlar, toponimlar izohlanmaydi, balki nom qanday obyektning nomi ekani eslatiladi, xolos: Sarvar – xotin-qizlar, erkaklar ismi, To'lqin – erkaklar ismi kabi⁶². Ushbu ismlar konkret shaxsning ismi bo'lib kelgan hollarda, ensiklopediyada ularga tegishli izoh berilgan.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da 6 ta o'zbek etnonimi, 60 ga yaqin boshqa xalq va millatlarning etnik nomi keltirilgan. Ushbu nomlar quyidagicha izohlanadi:

Barloslar Temur va temuriylar davrida katta rol o'ynagan o'zbek qabilalaridan birining nomi va shu qabilaga mansub kishi (1-jild. 82-bet).

Jaloyirlar O'zbek xalqining genetik sostaviga kirgan qabilalardan biri (1-jild. 271-bet).

Nayman O'zbek xalqining etnik sostaviga kirgan qabilalardan biri (1-jild. 494-bet).

Endi boshqa xalq va millatlar nomiga berilgan izohlardan namuna keltiramiz:

⁶¹ Никонов В.А. Задачи и методы антропонимики // Личные имена в прошлом, настоящем и будущем.-М.: Наука, 1970. -С. 55.

⁶² Узбек тилининг изоҳли лугати. II жилд.-М.: Наука, 1981 - 22, 247 б.

Gollandlar Niderlandiyaning tub aholisi, xalqi (1-jild. 193-bet).

Ispanlar Ispaniyaning tub aholisi; ispan xalqi (1-jild. 337-bet).

Tatarlar 1. Tatariston ASSRning asosiy aholisini tashkil etgan xalq; tatar xalqi. 2. Volga bo'yi, Sibir va Qrimda yashovchi turkiy tillar gruppasiga mansub elatlar (2-jild. 132-bet).

Keltirilgan izohlarda ikki xususiyat ko'zga tashlanadi: 1) etnonimlar izohi oddiy so'zlarni izohlash tamoyilidan farq qiladi; 2) etnonim qaysi etnosning nomi ekanligi qayd qilinadi; 3) etnosning yashash joyi ta'kidlanadi.

Endi ushbu etnonimlarning «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi»dagi izohlanishiga e'tibor beraylik. Ba'zi namunalar keltirish bilan cheklanamiz:

Jaloyirlar, jaloirlar – turkiy xalqlarning biri (Keyin bu qabilaga oid tarixiy ma'lumotlar keltiriladi). (3-jild, 645-bet).

Naymanlar, naymanlar – o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, no'g'oy va oltoy xalqlari tarkibiga kirgan qabila uyushmasi (6-jild, 246-bet).

Keyin naymanlar haqida qo'yidagi ma'lumotlar beriladi:

-tarixan qaysi hududlarda yashagani va yashashi;

-nayman tarkibiga kiruvchi urug'lar va ular nomi tilga olinadi;

-Respublika hududidan chetda O'rta Osiyo va Qozog'iston hududidagi naymanlar haqida ma'lumotlar keltiriladi;

-o'zbek xalqi shakllanishida naymanlarning o'rni va b. (6-jild, 246-bet).

Xalq, millat nomlarining izohi quyidagicha:

Gollandlar (o'zlarini Xol anders deb atashadi) - xalq, Niderlandiyaning asosiy aholisi (12,3 mln kishi).

Keyin quyidagi izohlar keltirilgan:

-gollandlarning umumiyl soni;

-genezisi, tarixi haqida ma'lumot;

-xo'jaligi haqida ma'lumot (3-jild, 51-bet).

Ko'rinaradiki, xalq, millatlar nomiga berilgan ensiklopedik izohlar urug' va qabilalarga berilgan izohlarga yaqin turadi.

Etnonimlarni izohlashga bag'ishlangan maxsus lug'atlar ham mavjud bo'lib, unda urug', qabilalar nomi xuddi ensiklopediyadagi kabi talqin qilinganini ko'ramiz. Masalan, taniqli turkman nomshunosi S.Otaniyozovning «Turkman etnonimlari lug'ati»dan ba'zi namunalar keltiramiz:

Айтамгалы [а:йтамгалы] – *тире* у нуратинских туркмен [Самарқандская обл]. «Имеющие тамгу в форме луны». Роды айтамгалы имеются и у узбеков, киргизов, башкир и др»⁶³.

Алат – древнетюркское племя, вошедшее частями в различных эпохи в состав казахов, туркмен и некоторых других тюркских народов [Зуев, 1962]⁶⁴.

S.Otaniyozovning yuqoridagi talqinlarida etnonimning nominativ ma'nosi (urug', qabila nomi), ensiklopedik ma'nosi hamda etimologik ma'nolari haqida ma'lumot

⁶³ Атаниязов С. Словарь туркменских этнонимов. –Ашхабад: Ылым, 1988. – 15 с.

⁶⁴ Отаниёзов С. Кўрсатилган манба. – 19 б.

berilgan. Buning ustiga etnonimlarni izohlash ma'lum sistemaga, meyorlarga asoslanmagan. Nomning qanday, qaysi darajada, keng yoki tor izohlanishi izoh muallifining qo'lidagi ma'lumotlarga bog'liq holda amalga oshirilgan.

Izohli lug'at va ensiklopediyalarda muayyan tildagi urug' va qabila nomlarining yetarli darajada qamrab olinmasligi ham etnos nomining turdosh otga teng emasligini, semantik jihatdan turdosh otdan ko'ra atoqli otga yaqin turishini ko'rsatadi.

Xullas, etnonimning ma'nosi ham, bu ma'noni izohlash usullari ham yetarli aniqlikka ega emas va kelgusida tadqiq qilinishi lozim bo'lgan muhim muammolardan biridir.

Etnonimlarning ma'nosi yuzasidan yuqorida olib borilgan talqinlardan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Etnonim nominativ xususiyatiga ko'ra turdosh otga mansub, chunki u denotat shaxsni yakkalab emas, guruhlab ataydi.
2. Etnonimda lug'aviy ma'noga ko'ra nominativ ma'no kuchli. Shu sababli etnonimlarni izohlash, turdosh so'zlar ma'nosini izohlashdan farqlanadi.
3. Etnonim nominativ ma'nodan tashqari qo'shimcha informatsiya tashiydi. Bu etnosning genezisi, shakllanish tarixi, nomning etimologiyasi, tarixi, etnik tarkibi kabi ma'lumotlardan iborat.
4. Etnonimlarning izohli lug'at va ensiklopediyalarda talqin qilish usuli atoqli otlar talqiniga yaqin va asosan ensiklopedik ma'lumot xarakteridadir.
5. Mahalliy urug' va qabilalar nomini izohlash o'zga xalq va millatlar nomini talqin qilishdan deyarli farq qilmaydi. Bu jihatdan ham etnonimlar atoqli otga yaqin turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бегматов Э. Киши номларининг маъноларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. -1962. -2-сон. -Б. 52.
2. Marqayev K.SH. O'zbek tili etnonimlarining lisoniy tadqiqi (Janubiy O'zbekiston hududi materiallari asosida). NDA. – Toshkent, 2007. – 26 b.
3. Реформатский А.А. Топонимика как лингвистический факт // Топонимика и транскрипция. – М.: Наука, 1964.
4. Молчанова О.Т. Структурные типы тюркских топонимов Горного Алтая. – Саратов: ГУ, 1982. – С. 7.
5. Суперанская А.В. Апеллятив-онома // Имя нарицательное и собственное. – М.: Наука, 1978. - С. 6-7.
6. Суперанская А.В. Групповые обозначение людей в лексической системе языка // Имя нарицательное и собственное. – М.: Наука, 1978. - С. 60-61.
7. Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – М.: Просвещение, 1983. - 26-27 с.
8. Никонов В.А. Задачи и методы антропонимики // Личные имена в прошлом, настоящем и будущем.-М.: Наука, 1970. -С. 55.

-
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд.-М.: Наука, 1981 - 22, 247 б.
 10. Атаниязов С. Словарь туркменских этнонимов. -Ашхабад: Ҷылым, 1988. - 15 с.